

## HOMILADOR AYOLLARNI SKRINING TEKSHIRUVIDAN O'TKAZISH MUDDATLARI VA SKRINING TEKSHIRUVINING MAQSADI

**Muqimova Hamidaxon**

*Farg'ona shahar Abu Ali Ibn Sino nomidagi*

*Jamoat salomatligi texnikumi*

*Hamshiralik ishi kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Homilador ayollarni skrining tekshiruvidan o'tkazish muddatlari va skrining tekshiruvining maqsadi yoritilgan bo'lib, mazkur masala yuzadidan muallif tomonidan shakllantirilgan ilmiy taklif va amaliy tafsiyalar o'z ifodasini topgan.

**Kalit so'zlar:** Perinatal, neonatal, tug'ma nuqsonlar, ultratovush tekshiruvi, xorionbiopsiya, platsentotsentez, kordotsentez, xromosoma

### THE TIMING OF SCREENING OF PREGNANT WOMEN AND THE PURPOSE OF SCREENING

**Annotation:** this article discusses the timing of screening of pregnant women and the purpose of screening, and reflects the scientific proposals and practical recommendations formulated by the author on this issue.

**Keywords:** Perinatal, neonatal, birth defects, ultrasound examination, chorionic biopsy, placentacesis, cordocentesis, chromosome

Perinatal, ya'ni tug'uruqqacha skrining tekshiruvlari samaradorligini oshirish hamda homilaning sog'lig'i va yashab ketishiga imkon bermaydigan tug'ma nuqsonlar va irsiy (xromosom) kasalliklar bilan bolalar tug'ilishini oldini olish maqsadida homilador ayollar ikki bosqichdan iborat bo'lgan perinatal skrining tekshiruvlaridan o'tkaziladi.



Birinchi bosqichdagi tug‘uruqqacha skrining tekshiruvlarida barcha homilador ayollar ommaviy ultratovush tekshiruvidan o‘tkaziladi va uning natijasida homilada tug‘ma nuqsonlar aniqlangan homilador ayollar “xavf guruhi”ga kiritiladi.

“Bunday tekshiruvlar uch marotaba tuman (shahar) markaziy ko‘p tarmoqli poliklinikalarining perinatal skrining xonasida amalga oshiriladi. Bunda birinchi marotaba homiladorlikning 10 – 14 haftasida, ikkinchi marotaba 16 – 20 haftasida boladagi tug‘ma nuqsonlarni aniqlash maqsadida; uchinchi marotaba esa 28 – 32 haftasida, kech namoyon bo‘ladigan tug‘ma nuqsonlarini aniqlash va homilaning funksional holatini baholash uchun o‘tkaziladi.

Birinchi bosqich tekshiruvi xulosasiga ko‘ra, “xavf guruhi”ga kirgan homilador ayollar homilaning 16 – 20 haftasida Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Ona va bola skrining bo‘limining hududiy filiallarida ikkinchi bosqichdagi perinatal tekshiruvlardan o‘tkaziladi. Bunda ayol hududiy skrining markaziga poliklinikadan yo‘llanma va avvalgi perinatal ultratovush tekshiruvlari natijalari aks etgan tibbiy kartasidan ko‘chirmani olib boradi”.

Skrining markazida ultratovush, biokimyoviy skrining tekshiruvi va uning natijasiga muvofiq homilaning xromosom sindromlar bilan tug‘ilish xavfi darajasi yuqori bo‘lgan homilador ayollarda invaziv tekshiruv (xorionbiopsiya, platsentotsentez, kordotsentez) usullari, keyinchalik esa homila hujayralarini genetik tahlili va boshqa tekshiruvlar o‘tkaziladi.

“Ikkinchi bosqichdagi perinatal skrining tekshiruvi natijasida homilador ayolga tibbiy-genetik xulosa beriladi.



“Homilada tug‘ma rivojlanish nuqsonlari va irsiy (xromosoma) kasalliklar mavjud bo‘lganda homilador ayol tibbiy-genetik xulosa bilan tegishli poliklinikaga yuboriladi. Ushbu tibbiy-genetik xulosa ko‘rib chiqish uchun tuman (shahar) ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikalarining Tibbiy-maslahat komissiyasiga taqdim etiladi.

Komissiya homilador ayol va uning yaqin qarindoshlariga perinatal skrining tekshiruvlari natijalari to‘g‘risida, homilada mavjud tug‘ma rivojlanish nuqsonlar borligi, tug‘ilgandan so‘ng chaqaloqning sog‘lig‘i va hayotiga ta‘siri, davolash usullari va ular bilan bog‘liq xavf-xatar darajasi, qo‘llash mumkin bo‘lgan tibbiy muolajalar va ularning oqibatlari hamda davolash natijalari haqida to‘liq axborot beradi.

Shundan keyingina homilador ayol va uning yaqin qarindoshlari o‘zlari ma’qul deb topgan qarorni qabul qilishadi.

Shu o‘rinda barcha “tibbiyot brigadalari” tarkibiga qo‘shimcha doya shtatlari ajratilgani ham skrining jarayonini tashkil qilishni yengillashtirganini ta’kidlab o‘tmoqchimiz. Tuman va shahar perinatal skrining xonalarida soatma-soat grafik tuzilgan bo‘lib, patronaj doylar homilador ayolni rejaga muvofiq skrining tekshiruviga boshlab keladi va tekshiruv xulosasini hududiy poliklinikaning tegishli mutaxassisiga yetkazadi”.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.YA.N. Allayorov.”Onalikda hamshiralik parvarishi” Toshkent 2012
- 2.YA.N. Allayorov “Akusherlik” Toshkent, 2008
- 3.M.F. Ziyaeva, G.Mavlonova “Ginekologiya” Toshkent, 2007.
- 4.Internet ma’lumotlari:  
<https://www.ishonch.org/>  
<https://kun.uz/>